

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOBOKALONOV ODILSHOH OSTONOVICH

**ZIDDIYAT KONSEPTLI LEKSEMALARNING DIALEKTIK,
PRAGMALINGVISTIK HAMDA NEYROPSIXOLINGVISTIK TADQIQI
(O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARI PARADIGMASIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

UDK: 81'276.6:796[=133.1/=512.133]

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)

Bobokalonov Odilshoh Ostonovich

Ziddiyat konseptli leksemlarning dialektik, pragmalingvistik hamda neyropsixolingvistik tadqiqi (o‘zbek va fransuz tillari paradigmasida)5

Бобокалонов Одилшох Остонович

Диалектическое, прагмалингвистическое и нейropsихолингвистическое исследование лексем с концептом противоречия (в парадигме узбекского и французского языков).....31

Bobokalonov Odilshoh Ostonovich

Dialectical, pragmalinguistic, and neuropsycholinguistic study of lexemes with the concept of contradiction (in the paradigm of Uzbek and French languages).....65

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications.....70

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOBOKALONOV ODILSHOH OSTONOVICH

**ZIDDIYAT KONSEPTLI LEKSEMALARNING DIALEKTIK,
PRAGMALINGVISTIK HAMDA NEYROPSIXOLINGVISTIK TADQIQI
(O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARI PARADIGMASIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.3.DSc/Fil1221 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sayfullayeva Ra'no Raufovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirzayev Ibodulla Kamolovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Shirinova Raima Hakimovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Kiselev Dmitriy Anatolyevich,
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "16" iyun soat 9 daqiqa" dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro sh., M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A/2373 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "3" iyun kuni tarqatildi.

(2026-yil "3" iyun daqiqa 26-10 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



D.I.Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

M.H. Xamidova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
koribi v.b., filologiya fanlari doktori, professor

O.M.Fayzulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida integratsiyalashuv dinamikalarining jadallashuv omili sifatida xorijiy tillarni o'qitish jarayonini takomillashtirish, xususan, qiyoslanayotgan tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish doirasida ziddiyat konseptli leksik birliklarga e'tibor qaratish mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilab beradi. Globallashuv jarayonlari insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Ko'p tillarni bilish zamon ziddiyatlarini tushunish, milliy-lisoniy qadriyatlarini yuksaltirish, xalqaro munosabatlarda diplomatik munosabatlarni va baynalmilal aloqalarni yaxshilashga xizmat qiladi. Tadqiqot oldida turgan dolzarb va murakkab vazifalardan biri ziddiyat konsepti asosida olam lisoniy manzarasini anglab bilish, mavjud ilmiy-nazariy mushohadalardan konseptual xulosa chiqarish hamda kelajakda ulardan til va jamiyat rivoji uchun foydalanishdan iboratdir.

Dunyo tilshunoslik fanlari integratsiyasida til falsafasi, strukturologiya, kommunikologiya, diskursologiya, pragmalingvistika, lingvodidaktika, lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, personologiya, konfliktologiya aloqadorligida neyropsixolingvistika fani ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mazkur integrativ yondashuv ziddiyat konseptli leksemalarni qiyosiy-chog'ishtirma, leksik-semantik, kognitiv, pragmatik va diskursiv jihatdan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, antroposentrik tadqiqot obyektiga olingan leksik birliklar ziddiyat konseptining lisoniy manzarasini tadqiq etishda, konseptualizatsiya, kommunikativ strategiya va nutqiy ta'sir mexanizmlarini yoritishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Shuningdek, konnotatsiya, diskursiv reallashuv, mental reprezentatsiya, antonimiya, enantiosemiya hamda psixolingvistik idrok jarayonlari orqali ziddiyatning tilda ifodalanish modellari ochib beriladi. O'zbek va fransuz tillari materialida mazkur hodisani neyropsixolingvistik aspektida o'rganish qiyosiy tilshunoslik, lingvodidaktika, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish, tilshunoslikda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va madaniy tafakkurni lingvistik vositalar orqali o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da ta'lim jarayonini nazariy bilimlardan amaliy ko'nikmalarga yo'naltirish zarurati qayd etilgan¹. Bu esa tilshunoslikda, ayniqsa, qiyosiy va dialektik yondashuvlar, pragmalingvistik, lingvomadaniy hamda neyropsixolingvistik tahlillarni ilmiy tadqiqotlarga tatbiq qilishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // Xalq so'zi, 09.10.2019. № 209 (7439).

5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida davlat tili nufuzi, fan va ta’lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o‘rganishni rag‘batlantirishga oid vazifalar belgilangan. Mazkur dissertatsiya amaldagi yo‘nalishlar bilan uyg‘unlikda til va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar orqali zamonaviy lingvistik tadqiqotlarga nazariy asos va amaliy yechimlar taklif etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Jahon tilshunosligida ziddiyat konseptli leksemalarni o‘rganish leksik semantika, kognitiv tilshunoslik, til falsafasi, pragmalingsvistika hamda neyropsixolingvistika kesishgan nuqtada shakllangan ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi. Bu yo‘nalishda yetakchi ilmiy markazlar va oliy o‘quv yurtlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Garvard universiteti, Kaliforniya universiteti, Yel universiteti (AQSh); Manchester universiteti, Birmingem universiteti, Sasseks universiteti (Buyuk Britaniya); Sorbonna universiteti, Grenobl-Alp universiteti, Jan Jores nomidagi Tuluza universiteti (Fransiya); Monreal universiteti, Toronto universiteti, Monrealdagi Kvebek universiteti (Kanada); Luven katolik universiteti, Brussel erkin universiteti, Lyej universiteti (Belgiya); Jeneva universiteti (Shveysariya); Lodz universiteti (Polsha); Groningen universiteti (Niderlandiya); Lund universiteti (Shvetsiya); Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Tambov davlat universiteti, Voronej davlat universiteti, Volgograd davlat universiteti (Rossiya); Osh davlat universiteti (Qirg‘iziston); shuningdek O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universitetida olib borilayotgan ilmiy ishlar bu sohaning ixtisoslashib borayotganidan dalolat beradi.

Jahon tilshunosligida ziddiyat konseptli leksemalarning dialektik, pragmalingsvistik va neyropsixolingvistik jihatlarini yoritishda nutq aktlari va pragmatik inferensiya masalalari ishlab chiqilgan² (Brussel erkin universiteti, Belgiya); antonimiya ziddiyat konseptli leksemalarning tizimli-semantik tayanchi sifatida talqin qilinib, ularning oppozitiv juftlik, konstruksiya va kanoniklik asosida ishlashi dalillangan³ (Manchester universiteti, Buyuk Britaniya); semantik qarama-qarshiliklarni kontekstda faollashuvchi konseptual munosabat sifatida sharhlab, ziddiyat konseptli leksemalarni pragmalingsvistik tahlil qilish uchun

² <https://mikhail.kissine.web.ulb.be/papers/Kissine2012b.pdf/>

³ <https://www.humanities.manchester.ac.uk/>

muhim nazariy asos yaratilgan⁴ (Sasseks universiteti, Buyuk Britaniya); implitsit ma'no va yashirin argumentlarning pragmatik tabiati yoritilib, leksik birliklarning kontekstda turlicha, jumladan, ziddiyatli talqin qilinish mexanizmlarini tushuntirishga xizmat qiluvchi nazariy asos taklif etilgan⁵ (Sorbonna universiteti, Fransiya) til, xotira, diqqat, semantika va pragmatikaning neyrokognitiv asoslari tadqiq etilib, ziddiyatli ma'no hamda oppozitiv birliklarni kognitiv-pragmatik tahlil qilish imkoniyati kengaytirilgan⁶ (Grenobl-Alp universiteti, Fransiya); diskursning pragmatik tabiati, implikatura va negatsiya hodisalari yoritilib, ziddiyat konseptli leksemalarning kontekst, inferensiya va nutqiy qarama-qarshilik asosida faollashuvini tushuntirishga metodologik zamin yaratilgan⁷ (Jeneva universiteti, Shveysariya); til va nutqning kognitiv-neyropsixologik mexanizmlari, konseptual ishlanmalar, psixolingvistik rivojlanish hamda til buzilishlari sohasida muhim tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu izlanishlar ziddiyat konseptli leksemalarning neyropsixolingvistik tahlili uchun metodologik asos bo'la oladi⁸ (Luven katolik universiteti, Belgiya); umumiy ritorika va semiotika yo'nalishlari rivojlantirilib, qarama-qarshilik va ma'no qurilishining diskursiv mexanizmlarini tahlil qilish uchun nazariy asos yaratilgan⁹ (Lyej universiteti, Belgiya); ikki tillilik sharoitida til boshqaruvi, konflikt monitoringi va ijro funksiyalarining o'rni ochib berilib, ziddiyatli ma'no va oppozitiv leksemalarni neyropsixolingvistik tahlil etish uchun eksperimental asos mustahkamlangan¹⁰ (Jan Jores nomidagi Tuluza universiteti, Fransiya); til, tafakkur va miya o'rtasidagi munosabat, eksperimental lingvistika hamda tilni qayta ishlash masalalari izchil o'rganilib, ziddiyatli semantik birliklarni kognitiv va psixolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish uchun metodologik poydevor shakllantirilgan¹¹ (Monreal universiteti, Kanada); tilning inson tafakkuri bilan aloqasi, nutqni kodlash va dekodlash jarayonlari hamda ularning kognitiv asoslari tadqiq etilishi ziddiyat konseptli leksemalarni kognitiv-pragmatik talqinda o'rganishga xizmat qiladi¹² (Monrealdagi Kvebek universiteti, Kanada); tilning ma'no qurilishi, ijtimoiy, kognitiv va neyrobiologik o'lchamlari hamda nutqni tushunish va ishlab chiqarish jarayonlari o'rganilib, leksemalarning semantik oppozitsiyasi va neyropsixolingvistik qayta ishlanishini tahlil qilish uchun zarur ilmiy asoslar ishlab chiqilgan¹³ (Laval universiteti, Kanada); vaqt referensiyasi va zamon kategoriyasi tafovuti eksperimental ravishda yoritilib, til birliklaridagi ziddiyatni neyropsixolingvistik darajada tahlil qilishning samarali modeli taklif etilgan¹⁴ (Groningen universiteti, Niderlandiya); kinoya, hazil va umidsizlik hodisalarini yagona pragmatik platformada tahlil qilib, ziddiyatli nutq aktlari va yashirin qarama-qarshi ma'nolarni o'rganish uchun muhim konseptual tizim ishlab

⁴ <https://profiles.sussex.ac.uk/p115259-m-lynne-murphy/>

⁵ <https://lettres.sorbonne-universite.fr/personnes/anouch-bourmayan>

⁶ <https://www.univ-grenoble-alpes.fr/cercog-uga-654159.kjsp/>

⁷ https://www.unige.ch/lettres/linguistique/application/files/9214/3135/3368/PDF_Moeschler.pdf

⁸ <https://www.uclouvain.be/en/research-institutes/ions/cognitive-neuropsychology-lab/>

⁹ <https://orbi.uliege.be/bitstream/2268/65094/1/Pr2sentation%20Dondero-Sonesson.pdf>

¹⁰ <https://dante.univ-tlse2.fr/files/original/f3c03eae422b07b112a0f2982e91172ee1a324da.pdf>

¹¹ <https://admission.umontreal.ca/cours-et-horaires/cours/Ing-1010/>

¹² <https://etudier.uqam.ca/programme?code=7644/>

¹³ https://cervo.ulaval.ca/diseases_and_conditions/troublesdelacommunication-fr/

¹⁴ <https://pure.rug.nl/ws/portalfiles/portal/174043788/Appendices.pdf>

chiqqilgan¹⁵ (Lodz universiteti, Polsha); diskurs tahlili va kognitiv lingvistika sohalarida ziddiyatli nutq hodisalari o‘rganilgan¹⁶ (Moskva davlat universiteti, Rossiya); til birliklarining kognitiv semantika va chastota asosida tahlili amalga oshirilgan¹⁷ (Birmingem universiteti, Buyuk Britaniya); daraja, chegaralanganlik va ma’no qurilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilib, ziddiyatli leksemalarning kognitiv-semantik modellanishiga mustahkam poydevor yaratilgan¹⁸ (Lund universiteti, Shvetsiya).

Shuningdek, metaforaning kognitiv xususiyatlari to‘g‘risida muhim xulosalar chiqarilgan¹⁹ (Kaliforniya universiteti, AQSh); til vositalari bilan og‘zaki berilgan tuzilmaviy bilim birliklarining freym semantikasi aniqlangan²⁰ (Yel universiteti, AQSh); tafakkur strukturasi asosida konseptual tizim ishlab chiqilgan²¹ (Toronto universiteti, Kanada); rekursiv til tuzilmalarini shakllantirishda kognitiv-kommunikativ motivatsiyalarning roli isbotlangan²² (Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya); kognitiv fanlar tushunchalarining izohli tahlil metodikasi ishlab chiqilgan²³ (Tambov davlat universiteti, Rossiya); til, ziddiyat konseptosferasi va milliy ong aloqasi aniqlangan²⁴ (Voronej davlat universiteti, Rossiya); qardosh bo‘lmagan tillarda gender konseptlarning semantik maydonlari aniqlangan²⁵ (Osh davlat universiteti, Qirg‘iziston); frazeologik birliklarning kognitiv modellari va xususiyatlari yoritilgan²⁶ (O‘zbekiston Milliy universiteti); o‘zbek va ingliz tillarining frazeologik qatlamiga inkorporatsiya qilingan gender tushunchalarini shakllantirish mexanizmi aniqlangan²⁷ (Samarqand davlat chet tillar instituti); fransuz va o‘zbek tillari materialida lingvomadaniy hamda lingvokognitiv tahlil tamoyillari qiyosiy asosda ishlab chiqilgan; turli nutqiy vaziyatlarda evfemizmlarning pragmatik xususiyatlari, jumladan, “o‘lim” konseptining yumshatib ifodalanishi tahlil qilingan²⁸ (Buxoro davlat universiteti). Biroq, ziddiyat konseptli leksemalarning dialektik, pragmalingvistik hamda neyropsixolingvistik tadqiqi o‘zbek va fransuz tillari paradigmasida alohida ilmiy muammo sifatida kompleks yondashuv asosida o‘rganilgani bilan ulardan ajralib turadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda “konsept” tushunchasi qadimdan mavjud bo‘lsa-da, qiyosiy tilshunoslikda ushbu atama ilmiy tahlil va talqin vositasi sifatida, ayniqsa, kognitiv yondashuvning shakllanishi va rivojlanishi bilan, 1990-yillardan boshlab faol qo‘llanila boshlandi. Fransuz tilshunosligida mazkur tushunchani, xususan “ziddiyat” konseptini o‘rganishda

¹⁵ <https://www.uni.lodz.pl/en/employee/marta-dynel/>

¹⁶ https://www.philol.msu.ru/~otipl/new/main/people/kibrik-aa/files/Cognitive_DA%40IPA_2001.pdf/

¹⁷ https://pure-oai.bham.ac.uk/ws/portalfiles/portal/94651543/2009_Divjak_Gries_FinalAuthorCopy.pdf/

¹⁸ <https://portal.research.lu.se/en/publications/antonyms-in-english-construals-constructions-and-canonicity/>

¹⁹ <https://dash.harvard.edu/server/api/core/bitstreams/7312037c-708a-6bd4-e053-0100007fdf3b/content>

²⁰ <https://zoo.cs.yale.edu/classes/cs458/lectures/CBR.html>

²¹ <https://www.fields.utoronto.ca/generalinfo/Fields-Cognitive-Science-Network>

²² <https://philosophyjournal.spbu.ru/article/download/7549/5594/21795>

²³ https://www.tsutmb.ru/nayk/nauchnyie_shkolyi_i_napravleniya/filologicheskie_nauki/kognitiv_lingv/

²⁴ <https://www.vsu.ru/ru/university/structure/communicate/pdf/lang-nat/lang-nat9.pdf>

²⁵ <https://base.oshsu.kg/resurs/document/PDF-20241203093820-obzm.pdf>

²⁶ <https://nuu.uz/ru/nfk/>

²⁷ https://samxorfil.uz/images/source/magazine_issues/2018/1-2018.pdf

²⁸ https://buxdu.uz/media/aftoreferat/avtoreferat_bobokalonov_polotshoh_razamazonovich.pdf

muhim manbalar sifatida F.de Sossyur, J.Fransua, P.Larrive, D.Lo'galua, F.No'vo'. M.Begbeder, J.Bensussan, M.Breal, R.Bart, D.Mengeno, G.Giyyom, F.Monneret, J.-K.Milner, A.Meye, F.Gade, J.L.Kalve, B.Barbo, F.Meyer, S.Shvarts²⁹ kabilarni ta'kidlash joiz. Rus tilshunosligida milliy-madaniy konseptual sohani badiiy matnda aks ettirishning umumiy va o'ziga xos muammolari Z.Popova, I.Sternin, N.Alefirenko, S.Askoldov, A.Babushkin, S.Vorkachev, V.Zusman, V.Karasik, G.Slishkin, I.Tarasova, V.Rishalnikova, L.Miller³⁰, shuningdek, mahalliy o'zbek tadqiqotchilardan Sh.Safarov, D.Ashurova, M.Galiyeva, D.Xudoyberganova, A.Abdiazizov, O'.Yusupov, M.Raxmatova, T.Mardiyev, N.Djusupov, N.Normurodovlarning³¹ asarlarida ko'rib chiqilgan. Bugungi kunga qadar ko'plab olimlar bu borada tadqiqotlar olib borgan bo'lsa-da,

²⁹ Saussure F. de. Cours de linguistique générale. Éd. critique par R. Engler. –Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1989. –Vol. 1. –1030 p.; François J., Larrivé P., Legallois D., Neveu F. L'analyse de la contradiction / La linguistique de la contradiction. –Bruxelles: Peter Lang, 2013. –P. 9-16.; Beigbeder M. Contradiction et nouvel entendement. –Paris: Bordas, 1972. –582 p.; Bensussan G. Contradiction / Marx le sortant. –Paris: Hermann, 2007. –P. 73-120.; Bréal M. Essai de sémantique: science des significations. –London: Forgotten Books, 2018. –354 p.; Barthes R. L'esprit de la lettre / L'obvie et l'obtus: Essais critiques III. –Paris: Seuil, 1982. –B. 89-92.; Maingueneau D. Discours et analyse du discours: introduction. –Paris: Armand Colin, 2014. –216 p.; Guillaume G. Temps et verbe: théorie des aspects, des modes et des temps. –Paris: Honoré Champion, 1970. –200 p.; Monneret Ph. Notions de neurolinguistique théorique. –Dijon: Éditions universitaires de Dijon, 2003. –284 p.; Milner J.-C. Introduction à une science du langage. –Paris: Éditions du Seuil, 2017. –720 p.; Meillet A. Introduction à l'étude comparative des langues indo-européennes. –Paris: Klincksieck, 2004. –502 p.; Gadet F., Varro G. Le "scandale" du bilinguisme // Langage et société. –Paris: 2006. –№ 116. –P. 9-28.; Calvet L.-J. La guerre des langues et les politiques linguistiques. –Paris: Payot, 1987. –294 p.; Barbeau B., Meier G.F., Schwarze S. Conflits sur/dans la langue: perspectives linguistiques, argumentatives et discursives. –Berlin: Peter Lang, 2021. –232 b.

³⁰ Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. –Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1999. –30 с.; Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта: теоретическое исследование. –Волгоград: Перемена, 2003. –96 с.; Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология / под ред. В.П. Нерознака. –Москва: Academia, 1997. –С. 267-279.; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика: дисс. ... д-ра филол. наук. – Воронеж, 1997. –330 с.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. –Москва: 2001. –№ 1. –С. 64-72.; Зусман В.Г. Диалог и концепт в литературе: литература и музыка. –Нижний Новгород: ДЕКОМ, 2001. –168 с.; Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования / Методологические проблемы когнитивной лингвистики / под ред. И.А. Стернина. –Воронеж, 2001. –С. 75-80.; Тарасова И.А. Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. –Нижний Новгород: 2010. –№ 4 (2). –С. 742-745.; Пищальникова В.А. Концептуальная система индивида как поле интерпретации смысла художественного текста / Язык. Человек. Картина мира: материалы Всероссийской научной конференции. В 2 ч. Ч. 1. –Омск: Изд-во ОмГУ, 2000. –С. 45-51.; Миллер Л.В. Художественный концепт как смысловая и эстетическая категория // Мир русского слова. –Санкт-Петербург: 2000. –№ 4. –С. 39-45.

³¹ Safarov Sh.S. "Konsept" hodisasi haqida / Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. –Samarqand, 2010. –B. 185-188.; Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cognitive Linguistics: o'quv qo'llanma. –Toshkent: VneshInvestProm, 2018. –160 b.; Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol. fan. dok. ... diss. –Toshkent: O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2015. –171 b.; Abdiazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent: Sharq, 2010. –176 b.; Джусупов Н.М. Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте: Авт. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент: Б.и., 2006. –29 с.; Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamaları xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2011. –B. 49.; Raxmatova M.M. Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida "go'zallik" konseptining lisoniy xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. –Buxoro, 2019. –33 b.; Mardiyev T. "Baxt" konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o'zbek tillari qiyosida) // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. –Samarqand, 2016. –№ 10. –B. 36-44.; Нормуродова Н.З. Антропоцентризм художественного дискурса: монография. –Ташкент: «Навоий университети» НМУ, 2019. –164 с.; Karimova S.S. "Baxt" konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjima muammolari (o'zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. –Buxoro, 2023. –56 b.

hozirgacha ushbu hodisaning yakdil qabul qilingan aniq ta'rifi mavjud emas. Konsept zamonaviy tilshunoslikning tobora takomillashib borayotgan tadqiqot sohasidir. U bevosita inson ongi, idroki bilan bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, oliy tafakkur mahsuli sifatida neyropsixolingvistika, pragmalingvistika va lingvomadaniyat sohalarida namoyon bo'ladi. Ushbu hodisaga ko'plab olimlar o'z munosabatlarini bildirib kelmoqdalar. Chunonchi, konsept falsafiy tushunchalar doirasida F.Rekanati, M.-B.Xansen, J.Maslova, V.Rishalnikova, O.Bespalova, U.Nosirova, S.Karimov, I.Mirzayev, R.Sayfullayeva, R.Bobokalonov³² kabi olimlar ishlarida o'z aksini topgan. Biroq, ziddiyat konseptli leksemalarning dialektik, pragmalingvistik hamda neyropsixolingvistik tadqiqi o'zbek va fransuz tillari paradigmasi muammolariga bag'ishlangan ishlar deyarli mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining "Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini o'rganishni yanada rivojlantirishning afzalliklari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va fransuz tillari paradigmasida ziddiyat konseptli leksemalarning dialektik, pragmalingvistik hamda neyropsixolingvistik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va fransuz tillarida ziddiyat konseptli leksik birliklarning leksik-semantik turlarini, dialektik va pragmalingvistik asoslarini o'rganish, ularning til va tafakkurdagi neyropsixolingvistik o'rnini aniqlash;

o'zbek va fransuz tillarida ziddiyat konseptli leksemalarning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini aniqlash va ularning semantik, pragmatik hamda kognitiv xususiyatlarini tadqiq qilish;

dialektik, pragmalingvistik hamda neyropsixolingvistik yondashuv asosida ziddiyatli leksemalarning diskurs, nutqiy faoliyat va kommunikativ muloqotdagi o'rnini belgilash;

ziddiyat konseptli leksemalarning inson ongida shakllanishi va nutq jarayonidagi ifodasini neyropsixolingvistik omillar bilan asoslash;

o'zbek va fransuz tillaridagi ziddiyat konseptli leksemalarning pragmalingvistik, diskursologik, lingvodidaktik, personologik, konfliktologik va konseptual xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish;

o'zbek va fransuz tillaridagi ziddiyat konseptli leksemalarning qiyosiy tilshunoslikdagi o'rnini belgilash va uning amaliy ahamiyatini aniqlash;

ziddiyat konseptli leksik birliklarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy atamalar doirasida, shuningdek, lingvistik, diskursiv, kommunikativ jarayonlardagi

³² Recanati F. Truth-Conditional Pragmatics. –Oxford: Oxford University Press, 2010. -324 p.; Hansen M.-B.M. The Semantic Status of Discourse Markers // *Lingua*. –1998. -Vol. 104. -№ 3-4. –P. 235-260.; Маслова Ж.Н. Когнитивная концепция поэтической картины мира: монография. –Москва: Флинта, 2012. -420 с.; Пищальникова В.А. Психопоэтика. –Барнаул: Изд-во АлтГУ, 1999. -176 с.; Беспалова О.Е. Концептосфера поэзии Н.С. Гумилева в ее лексическом представлении: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –СПб., 2002. -24 с.; Nosirova U.I. Poetik matnning pragmatik xususiyatlari. –Farg'ona: Classic, 2020. -152 b.; Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. –Samarqand: Zarafshon, 1992. -140 b.; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. –Ташкент, 1992. -43 с.

muammolarini aniqlash va ularning yechimlarini taklif etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va fransuz tillaridagi ziddiyat konseptini ifodalovchi leksik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va fransuz tillarida ziddiyat konseptini ifodalovchi leksemalarning dialektik, pragmalingvistik, neyropsixolingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, sintezlash, statistik, konseptual, komparativ, umumlashtirish, tasniflash, pragmatik, kognitiv tahlil kabi lingvistik tadqiqotning maxsus usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

ziddiyat konseptli leksemalarning leksik-semantik tipologiyasi, ularning antonimik, enantiosemik, konnotativ-pragmatik va diskursiv-reprezentativ modellar bilan uzviy bog‘liqligi hamda mazkur birliklarning neyrokognitiv “til–tafakkur–nutq” triadasi zaminida lisoniy-falsafiy determinatsiyasi tizimli-komparativ yondashuv asosida aniqlangan;

ziddiyat konseptli leksemalarning fonetik, morfologik, sintaktik va semantik strukturasi nafaqat tilning sathlararo integratsiyasi mahsuli sifatida, balki ularning pragmalingvistik intensiya, kommunikativ strategiya va nutqiy aktlar bilan shartlangan funksional-semantik mexanizmlari noqardosh tillar qiyosida dalillangan;

ziddiyat konseptli leksemalarning inson ongida shakllanishi, miya faoliyati, ruhiy holat va nutqiy reallashuv o‘rtasidagi ko‘pqatlamli aloqadorlik neyropsixolingvistikaning interdisiplinar metodologiyasi asosida sharhlanib, mazkur birliklarni lingvistik, kognitiv, konfliktologik va amaliy-kommunikativ tadqiq etishning nazariy-metodologik modeli asoslangan;

o‘zbek va fransuz tillaridagi ziddiyat konseptli leksemalarning lingvomadaniy, diskursologik va qiyosiy-tipologik xususiyatlari folklor matnlari, badiiy adabiyot va jonli kommunikativ diskurs materiallari asosida tahlil qilinib, ularning ijtimoiy-madaniy kod, aksiologik baholash va konseptual oppozitsiyalarni verballashtirish – inson tafakkurida mavjud bo‘lgan qarama-qarshi tushunchalarni til vositalari orqali ifodalashdagi o‘rni dalillangan;

dialektik ziddiyat, qarama-qarshilik, pragmatik implikatura va neyropsixolingvistik jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro korrelyativ munosabat ziddiyat konseptli leksemalarning diskurs hosil qilish, konflikt kommunikatsiyasini voqelantirish, personologik xarakteristika yaratish hamda lingvodidaktik va lingvomadaniy interpretatsiyada markaziy kategoriyalardan biri ekani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari

fransuz va o‘zbek tillarida ziddiyat konseptli leksemalarning leksik-semantik mohiyati, milliy-lisoniy, uslubiy xususiyatlari har ikkala xalqning nutq sharoiti, tili, madaniyati, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati va o‘ziga xos milliy tafakkur tarzi bilan chambarchas bog‘liqligi isbotlangan;

fransuz va o‘zbek tillarida ziddiyat konseptli leksemalarning xususiyatlari lingvokulturologik, lingvostilistik, lingvopragmatik asosda aniqlangan;

fransuz va o‘zbek tillarida ziddiyat konseptli leksemalar bo‘yicha to‘plangan materiallar, umumlashma va xulosalar hozirgi chog‘ishtirma tilshunoslik uchun

muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar "Leksikologiya", "Matn lingvistikasi", "Neyropsixolingvistika", "Lingvistik tahlil metodlari" "Fransuz tili stilistikasi", "Semantika va so'z tuzilishi", "Kognitiv lingvistik", "Qiyosiy tipologiya" kabi fanlardan yaratilajak yangi darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo'llanilgan ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, statistik, konseptual, sintezlash, komparativ, qiyosiy-tipologik, umumlashtirish, tasniflash, kognitiv tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fransuz va o'zbek tillarida ziddiyat konseptli leksemalarining leksik-semantik, funksional-stilistik xususiyatlari bo'yicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan har bir til tizimiga xos lingvistik belgi-xususiyatlarni chog'ishtirma aniqlashda foydalanish mumkinligi, shuningdek, umumlashtirilgan ilmiy-nazariy asoslar kelgusi tadqiqotlar uchun muayyan darajada ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning natijalaridan umumiy tilshunoslik, zamonaviy tilshunoslik, qiyosiy tipologiya, leksikologiya, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistik, neyropsixolingvistika, psixolingvistika, lingvistik tahlil metodlari, stilistika va boshqa fanlar bo'yicha kurslarni zamonaviy talablar darajasida tashkil etish va o'qitish tizimini yaxshilashda, fransuz tilini o'rganish amaliyotida foydalanish imkoniyatidan iborat. Fransuz tilini xorijiy til sifatida madaniyatlararo kommunikativ muloqot asosida o'rgatish, rasmiy diplomatik munosabatlarni tashkil etish, diskurs vaziyatini belgilash, undan so'zlashuv jarayonida foydalanish, shuningdek, o'rganiladigan fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalar, maxsus kurslar tuzish amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va fransuz tillari paradigmasida ziddiyat konseptli leksemalarning dialektik, pragmalingvistik hamda neyropsixolingvistik tadqiqini amalga oshirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ziddiyat konseptli leksemalarning leksik-semantik tipologiyasi, ularning antonimik, enantiosemik, konnotativ-pragmatik va diskursiv-reprezentativ modellar bilan uzviy bog'liqligi hamda mazkur birliklarning neyrokognitiv "til-tafakkur-nutq" triadasi zaminida lisoniy-falsafiy determinatsiyasi tizimli-komparativ yondashuv asosiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetida 2022–2024-yillar davomida bajarilgan REP-25112021/113 – "UZUDT: O'zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun universal bog'liqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2026-yil 25-martdagi №04/11-8312-son dalolatnomasi). Natijada ziddiyat konseptli leksemalarni dialektik, pragmalingvistik va neyropsixolingvistik yondashuvlar asosida kompleks o'rganishga doir ilmiy qarashlar hamda

metodologik xulosalar til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqurroq anglashga, lisoniy birliklarni ko'p omilli tahlil qilishga, ularning semantik tabiatini izohlashga, shuningdek, lingvistik birliklarni qiyosiy-chog'ishtirma, semantik, pragmatik va kognitiv yo'nalishlarda tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

ziddiyat konseptli leksemalarning fonetik, morfologik, sintaktik va semantik strukturasi nafaqat tilning sathlararo integratsiyasi mahsuli sifatida, balki ularning pragmalingvistik intensiya, kommunikativ strategiya va nutqiy aktlar bilan shartlangan funksional-semantik mexanizmlari noqardosh tillar qiyosiga oid ilmiy xulosa va natijalardan Brussel erkin universiteti (Université libre de Bruxelles) huzuridagi "ULB Langues" xorijiy tillar bo'yicha ilmiy-o'quv va malaka oshirish markazida Wallonie-Bruxelles International (WBI) granti asosida tashkil etilgan ilmiy stajirovka, uzluksiz kasbiy malaka oshirish, o'quv mashg'ulotlari, ilmiy seminarlar, tadqiqot muhokamalari va xalqaro akademik hamkorlik faoliyatlari doirasida foydalanilgan (Brussel erkin universitetining 2025-yil 18-dekabrda №218-son ma'lumotnomasi). Natijada ziddiyat konseptli leksemalarni o'zbek va fransuz tillari paradigmasida dialektik, pragmalingvistik va neyropsixolingvistik asosda o'rganish samaradorligini oshirishga, ziddiyatni ifodalovchi leksik birliklarning til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqligini chuqurroq anglashga, ularning ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy atamalar doirasidagi hamda lingvistik, diskursiv va kommunikativ jarayonlardagi qo'llanish xususiyatlarini funksional jihatdan izohlashga, shuningdek, zamonaviy kommunikativ vaziyatlarda ziddiyatli mazmuni tahlil qilishga doir ilmiy-amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilgan;

ziddiyat konseptli leksemalarning inson ongida shakllanishi, miya faoliyati, ruhiy holat va nutqiy reallashuv o'rtasidagi ko'pqatlamli aloqadorlik neyropsixolingvistikaning interdisiplinar metodologiyasi asosida sharhlanib, mazkur birliklarni lingvistik, kognitiv, konfliktologik va amaliy-kommunikativ tadqiq etishning nazariy-metodologik modeli bilan bog'liq xulosa va natijalardan Toshkent Fransuz Alyansi tomonidan amalga oshirilayotgan xalqaro madaniy-ma'rifiy, lingvistik va kommunikativ loyihalar, xususan, "Club de conversation", "Soirée Quizz", "Atelier poésie", "Atelier théâtre", "Atelier journalisme", "Atelier enfants", "Atelier d'écriture", "Concours de la Plume d'or", "Atelier poésie – André du Bouchet", "Atelier journalisme – Albert Londres", "Soirée – Jeux de société", "Atelier lecture de contes pour les enfants", "Le printemps c'est magique", "Club de conversation – Générations", "Pourquoi apprendre une langue ?" kabi o'quv-muloqot mashg'ulotlari, seminarlar va adabiy-lingvistik tadbirlar mazmunini boyitishda foydalanilgan (Toshkent Fransuz Alyansi NNTning 2026-yil 24-martdagi №16-son ma'lumotnomasi). Natijada fransuz va o'zbek tillaridagi ziddiyatli mazmunning lingvistik va madaniy talqinini chuqurlashtirish, ishtirokchilarning qiyosiy-lingvistik tafakkurini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqotda qarama-qarshi ma'no, baholash va pozitsion ifodalarni anglash hamda izohlash kompetensiyalarini kuchaytirish, shuningdek, Toshkent Fransuz Alyansi tomonidan tashkil etiladigan xalqaro ta'limiy va madaniy dasturlarning ilmiy-metodik saviyasi, mazmuniy asoslanganligi va amaliy samaradorligini oshirishga

erishilgan;

o‘zbek va fransuz tillaridagi ziddiyat konseptli leksemalarning lingvomadaniy, diskursologik va qiyosiy-tipologik xususiyatlari folklor matnlari, badiiy adabiyot va jonli kommunikativ diskurs materiallari asosida tahlil qilinib, ularning ijtimoiy-madaniy kod, aksiologik baholash va konseptual oppozitsiyalarni verballashtirish – inson tafakkurida mavjud bo‘lgan qarama-qarshi tushunchalarni til vositalari orqali ifodalashdagi o‘rniga doir xulosa va natijalardan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29 maydagi 194-sonli buyrug‘iga asosan berilgan №194-291 raqamli nashr guvohnomasi asosida 5611500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo‘yicha: fransuz tili) mutaxassisligi talabalari uchun “Notiqlik san’ati va nutq madaniyati” nomli darslikni yaratishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2026-yil 6-maydagi № 3373-son ma’lumotnomasi). Natijada darslik mazmuni lingvomadaniy va diskursiv materiallar bilan boyitilib, talabalarning notiqlik, nutq madaniyati, bahs-munozara yuritish hamda ziddiyatli mazmuni madaniyatlararo muloqotda ifodalash kompetensiyalari rivojlantirilgan.;

dialektik ziddiyat, qarama-qarshilik, pragmatik implikatura va neyropsixolingvistik jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro korrelyativ munosabat ziddiyat konseptli leksemalarning diskurs hosil qilish, konflikt kommunikatsiyasini voqelantirish, personologik xarakteristika yaratish hamda lingvodidaktik va lingvomadaniy interpretatsiyada markaziy kategoriyalardan biri ekanligiga oid ilmiy xulosa va tavsiyalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi “Buxoro” telekanalining “O‘zlikni anglash” hamda “Buxoro” radiosining “Najot bilimda”, “Ijod zavqi” radioeshittirishlari ssenariysini tuzishda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2026-yil 25-martdagi №01-09-30-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu ko‘rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga, ilmiy-ommabopligini ta’minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 6 ta xorijiy va 3 ta respublika konferensiyalarida qilingan ma’ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 35 ta ilmiy ish, shundan, 3 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 12 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy va 10 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 266 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya

mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, aprobatsiyasi, joriylanishi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Til falsafasi va bilish nazariyasiga asosan ziddiyat konseptini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan bo'lib, uning **“Ziddiyat konsepti, uning lingvokognitiv va falsafiy xususiyatlari”** nomli birinchi faslida til falsafasi va dialektika nuqtayi nazaridan ziddiyat konseptining epistemologik (gnoseologik) va kognitiv lingvistik masalalari tahlil etiladi. Ushbu bo'limda tilshunoslikdagi kognitiv yondashuv, bilishning ontologik bosqichlari, ziddiyat konseptining falsafiy ildizlari, lingvistik tasnifi va metodologik pozitsiyalari atroflicha o'rganilgan.

Eng avvalo, konseptning nazariy asoslari “olamni bilish nazariyasi” bilan bog'liq hissiy idrok, mantiqiy tafakkur va amaliyotni birlashtirgan holda muammoning nazariy asoslariga e'tibor qaratilgan. Bu jihatdan, ziddiyat konseptining shakllanishida dialektika qonunlari (ziddiyat, ayniyat, inkorni inkor etish)dan falsafiy tayanch sifatida foydalanilgan. Ayniqsa, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni asosida olamni idrok etishda ziddiyatli tushunchalarning muqarrar ravishda til sistemalarida mavjudligi, ularning tildagi lingvokognitiv ifodalanish shakllari isbotlab ko'rsatilgan.

Tadqiqotda “ziddiyat konsepti” va “ziddiyat konseptli leksema” tushunchalari o'zaro farqlanib, birinchisi tafakkurda shakllanuvchi konseptual-kognitiv birlik, ikkinchisi esa mazkur konseptni til sathida ifodalovchi leksik-semantik birlik sifatida talqin qilindi. O'zbek tilidagi “ziddiyat”, “qarama-qarshilik”, “nizo”, “ixtilof”, “kelishmovchilik” kabi birliklar hamda fransuz tilidagi *opposition*, *contradiction*, *conflit*, *divergence*, *tension*, *antinomie* kabi leksemalar denotativ, konnotativ, pragmatik va diskursiv jihatdan o'zaro qiyoslandi.

Kognitiv tilshunoslik doirasidagi yirik tadqiqotchilar *V. fon Gumboldt*, *Y.D.Apresyan*, *L.N.Iordanskaya*, *F.Goldman-Eysman*, *L.O.Jolkovskiy* va boshqalarning konseptual yondashuvlarida o'rganilib, til va tafakkur munosabati hamda tilning kontseptual manzarasini shakllantirishdagi roli asoslab berilgan. Falsafa fanidagi fenomenologik, analitik va postmodernistik oqimlar nuqtayi nazaridan til vositasida inson ongi va bilish aktlari (intensionallik, noema, retensiya, protensiya) bilan ziddiyat konsepti qanday bog'liqlikda ekanligi yoritiladi. Shuningdek, fransuz tilshunosligida ziddiyat konseptining tadqiqiga oid dolzarb ishlanmalar (*F.Rekanati*, *M.B.Hansen*, *D.Mengeno*, *G.Giyyom*, *F.Monner*) sharhlanib, fransuz tilidagi ziddiyatli diskursiv belgilarning semantik-pragmatik xususiyatlariga dalil-misollar keltiriladi. Til falsafasi bo'yicha yetakchi fransuz olimi *F.Rekanat*ning kontekstga asoslangan pragmatika nazariyasi, zamonaviy fransuz tilshunosi, Manchester universiteti professori *M.-B. Mosegard Hansening* “*diskurs markerlari (discourse markers)*”, Sorbonna universiteti professori *D.Mengenon*ing “*diskurs analizi (analyse du discours)*”ga oid ishi, taniqli fransuz tilshunosi *G.Giyyomning* “*til psixomexanikasi (psychomécanique du*

langage)“ nazariyasi hamda Sorbonna universiteti professori, fransuz tilshunosi F.Monnerening “*analogik tilshunoslik (linguistique analogique)*” yondashuvi dissertatsiya g‘oyasiga ilmiy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Fransuz tilshunos olimlari D.Mengeno va K.Kerbra-Orekkioni ham ziddiyat konseptiga o‘z munosabatlarini bildirishgan. Masalan, Kerbra-Orekkionining fikricha, “*badiiy nutqdagi ziddiyatlar faqat semantik darajada emas, balki subyektiv belgilash, muallif pozitsiyasining nutqiy ifodasi va dialogik ishtiroki orqali ham shakllanadi*” deb ta’rif bergan.

Ziddiyatli leksemalarning bilishdagi roli, ularning denotativ va konnotativ talqini, metaforik va intensionallik ifodalanishidagi tafovutlar, semantik dualizmlar (“*yaxshilik↔yomonlik*”, “*erkinlik↔qaramlik*”, “*yordam ko‘rsatish↔zarar yetkazish*”) lingvokognitiv jihatdan izchil tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv orqali o‘zbek va fransuz tillarida ziddiyat konseptining dialektik, pragmalingsvistik hamda neyropsixolingvistik tadqiqotiga metodologik asoslar tanlangan.

Bobning ikkinchi fasli “*Ziddiyat konseptining dialektik va kognitiv aspektlari*” deb atalgan. Unda ziddiyat konsepti nafaqat falsafiy tizimlar, balki tilshunoslik va tafakkur jarayonlari doirasida atroflicha o‘rganilgan. Ziddiyatning dialektik mohiyati va uning inson tafakkuri bilan bevosita aloqador kognitiv lingvistik tushunchalar tahlil qilingan. Ziddiyat konsepti ikki asosiy nuqtayi nazardan yoritildi: 1) *dialektik*, bunda ziddiyat taraqqiyotning asosiy qonuni sifatida tushuntirildi va 2) *kognitiv*, ya’ni inson tafakkurida qarama-qarshi modellarning mavjudligi orqali til vositasida ifoda topadigan konseptual tuzilma sifatida izohlangan.

Dialektika harakat, qarama-qarshilik, taraqqiyot qonunlariga asoslangan tafakkur metodologiyasi bo‘lib, uning doirasida ziddiyat narsa va hodisalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar orqali o‘zgarishi, yangilanishi va rivojlanishini ta’minlovchi inson ruhiyatidagi ichki kuch sifatida talqin qilinadi. Zid semalarning bir birlik yoki birikma doirasida qo‘shilishi ayrim hollarda *oksimoron* shaklida namoyon bo‘ladi. O‘zbekcha: “*aqlli ahmoqlik*”, “*tirik murda*”, “*sokin portlash*”, “*yoqimli alam*”, “*achchiq tabassum*”, “*shodlik ko‘z yoshlari*”; fransuzcha: “*lumière noire*” (*qora nur*) “*obscur clarté*” (*zulmatli yorug‘lik*), “*violence douce*” (*yumshoq zo‘ravonlik*), “*silence bruyant*” (*shovqinli sukunat*), “*réalité virtuelle*” (*virtual reallik*) va b. qiyoslangan.

Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan ziddiyat konsepti inson idrokida ikki yoki undan ortiq qarama-qarshi tushunchalarning bir vaqtning o‘zida mavjudligi orqali shakllanadi. Bu esa kognitiv metafora, ramziy model va prototip asosida tilda namoyon bo‘ladi. Tilshunoslar J.Lakof va B.Jonson tomonidan tadqiq etilgan “*kognitiv (konseptual) metafora*”³³ tushunchasi asosida fikrlar, tuyg‘ular va tajribalar ziddiyatli kategoriyalar orqali tizimlashadi: o‘zbekcha “*fikrlar to‘qnashuvi*”, “*Bahsga kirishdi.*”, “*Kelishuvga ziddiyat orqali erishildi*”, fransuzcha “*Affrontement d’idées*”, “*combat intellectuel*”, “*conflit maîtrisé*” kabi.


Kognitiv modelda ziddiyat konsepti ichida “*opozitsiya*” (qarama-qarshilik), “*inkor*” (*négation*), “*murosasizlik*” (*irréconciliabilité*) kabi semantik jihatlar

³³ Lakoff G. Conceptual metaphor / Cognitive Linguistics: Basic Readings (ed. D. Geeraerts). –Berlin, New York: Mouton de Gruyter, 2006. –P. 185-238.

mavjud bo‘lib, ular asosida tafakkur harakati jonlanadi. Zid leksemalar badiiy asarga, poeziya va prozaga o‘ziga xos ma’no va mas’uliyat yuklagan til hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. Chunonchi, “Va do‘stlarim ustimdan kulib, Achinganda menga dushmanim, Sizni ko‘rsam, yodga tushardi, Qo‘limdagi qulfsiz kishanim.” (X. Davron, “Bahordan bir kun oldin”)³⁴ Fransuz tilida ham buni kuzatish mumkin: “*Cette obscure clarté qui tombe des étoiles, Enfin avec le flux nous fait voir trente voiles...*”(P.Kornelning “Sid” tragikomediyasi)³⁵ Bulardan anglashiladiki, fikrning qurolga aylanishi, ziddiyatning semantik kuchga ega bo‘lishi, til orqali ijtimoiy, ruhiy va madaniy muhitda amalga oshirilishi mumkin.

Bobning uchinchi fasli “**Til va tafakkur fenomenida ziddiyat konseptining o‘rni**” deb nomlangan. Mazkur faslda ziddiyat konsepti til va tafakkur o‘zaro munosabatining markaziy elementi sifatida tahlil qilinadi. Til va tafakkurning o‘zaro aloqasi nafaqat mantiqiy fikrlash jarayonlarida, balki inson ongida ziddiyatli tushunchalarning shakllanishi va ularning til birliklari orqali ifodalanishida ham neyropsixolingvistik muhim rol o‘ynaydi. Ziddiyat konsepti aynan tafakkur doirasida intensivlik kasb etib, til orqali tashqi olamda namoyon bo‘ladi.

Ziddiyat konsepti tafakkurda yadro (*noyau*) va periferiya (*periphérie*) orqali shakllanadi. Yadroda tushunchaning asosiy, universal ma'nosi bo‘lsa, periferiya uni ijtimoiy-madaniy kontekstda boyituvchi, o‘zgaruvchan elementlardan iborat bo‘ladi. Masalan, erkinlik va bo‘ysunish, tinchlik va urush, hayot va o‘lim kabi qarama-qarshi kategoriya juftliklari har ikkala tilda ham asosiy ziddiyatli yadro konseptlarini tashkil etadi. Ziddiyatlarning markaz/qurshov muvozanati qiyosi :



Ziddiyat – bu tafakkurning doimiy harakatdagi shakli bo‘lib, tilda u antonim juftliklar, stilistik ziddiyatlar, metaforalar, ijtimoiy-lisoniy kontekstlar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, fransuz tilida: “*Il dit la vérité, mais personne ne veut l’entendre.*” - “*U haq, lekin uni eshitishmaydi*” jumlasida “haq” va “eshitilmaslik” qarama-qarshi tushunchalar orqali ichki ziddiyat aks etiriladi.

O‘zbek va fransuz tillarida ideologik, axloqiy va diniy qadriyatlar, ziddiyatli kontseptlarni turlicha aks ettiradi. Masalan: “*Sabr-u qanoat bilan boylik keladi*” degan ibora ichida “qanoat va boylik” o‘rtasidagi ziddiyat mavjud bo‘lib, bunda ruhiy-ma’naviy ustunlik targ‘ib qilinadi. Fransuz madaniyatida: “*La liberté est un combat.*” (*Erkinlik – bu kurash*) nutqiy ifodada ziddiyat ochiq, faol, bahsli shaklda

³⁴ Davron X. Bahordan bir kun oldin: she’rlar, rivoyatlar, tarjimalar. –Toshkent: Sharq, 1997. -224 b.

³⁵ Corneille P. Le Cid. –Paris: Hachette Education, 1999. -192 p.

namoyon bo‘ladi, bu ruhiy motivatsiya G‘arb tafakkurining konfliktga yo‘naltirilganidan dalolat beradi.

Mazkur faslda tafakkurda ziddiyatli tushunchalarning shakllanishiga sabab bo‘luvchi ijtimoiy, madaniy, tarixiy omillar haqida ham tahlillar berilgan va *V. fon Gumboldt, L. Vigotskiy, A.A. Leontyev, R. Jeykendorf, G. Lakof* kabi olimlarning konseptual qarashlari tahlil qilingan. Ayniqsa, *Lakof*ning “*konseptual metafora nazariyasi*” asosida ziddiyatlar metaforik tuzilmalarda qanday ifodalanganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Misol uchun: “*Hayot – bu kurash*” (*Life is a struggle*), “*Fikr – bu qurol*” (*Ideas are weapons*). Bu metaforalar tafakkurdagi ziddiyatli holatlarni anglatadi va tilda ularning lingvistik shakllari paydo bo‘ladi. Shuningdek, neyropsixolingvistik yondashuv asosida ziddiyat konseptli til birliklarining miyadagi konfigurativ jarayonlari ham nazariy jihatdan tushuntirilgan.

Inson miyasida turg‘un (konservativ) va yangilikka intiluvchi (inovativ) modullar o‘rtasidagi kurash tafakkurda ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bu ziddiyat tilga *ironik, satirik* yoki *konfliktli diskurs* orqali ko‘chadi: *fransuzcha: “C’est une idée brillante, comme toujours...” - “Bu har doimgidek zo‘r g‘oya...”* nutqiy hosilada kinoya orqali ziddiyat ifodalangan.

Til va tafakkur birligida ziddiyat konseptining shakllanish, namoyon bo‘lish va madaniy jihatdan tafovutli ifodalanish mexanizmlarining izchil tahlili shuni ko‘rsatadiki, ziddiyat – bu tafakkurda mavjud bo‘lgan doimiy impuls bo‘lib, til orqali ijtimoiy, psixologik, madaniy va ruhiy holatlarning markaziy belgilaridan biriga aylanadi.

Ikkinchi bob “**Ziddiyat konseptli leksemalarning lingvodidaktik va pragmalingvistik xususiyatlari**” deb atalgan. Bobning birinchi fasli “*Til tizimi va leksik sathning mustaqilligi*” deb yuritilgan. Unda til murakkab qatlamli tizim sifatida ta‘riflanib, leksik sath mazmuniy jihatdan eng boy va tafakkur bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qatlam ekani nazariy asosda yoritilgan. Aynan shu sathda inson tafakkuridagi ziddiyatli mazmunlar leksik vositalar orqali inson nutqi va ruhiyatida namoyon bo‘ladi.

Leksik birliklarning semantik va konseptual mustaqilligi ularning boshqa til sathlariga nisbatan o‘zgaruvchanligi bilan izohlanadi. Masalan, *ziddiyat, nizo, bahs, qarama-qarshilik, tortishuv* kabi leksemalar nafaqat ma‘no jihatidan, balki kommunikativ vaziyatdagi funksional jihati, stilistik ohangi va madaniy konnotatsiyasi bilan ierarxik o‘svuchanlikka egadir.

Dialektik tafakkur qonuniyatlari til tizimida, xususan, leksik tizimda til va tafakkurning in‘ikosi bilan shartlanadi, uning har bir qatlami, ayniqsa, leksik sath, inson tafakkuridagi ziddiyatli hodisalarni o‘zida aks ettiradi. Shu sababli ziddiyat konseptli leksemalarning mavjudligi til tizimidagi ichki qarama-qarshiliklar, paradokslar va semantik kuchlanishlarning lingvistik ifodasidir.

O‘zbek va fransuz tillaridagi ziddiyat konseptini ifodalovchi leksik birliklar semantik maydon doirasidagi yadro va periferiya elementlarini hosil qiladi. O‘zbek tilida *ziddiyat, nizo* – yadrodan joy olsa, *ixtilof, kelishmovchilik, qarama-qarshilik* – periferiya unsurlari sifatida namoyon bo‘ladi. Fransuz tilida *opposition* yadro, *contradiction, conflit* yadroga yaqin, *tension, antinomie, divergence* kabi birliklar periferiya elementlari sifatida qaraladi.

Ziddiyat konsepti lingvodidaktik jihatdan til o‘rganishda ham metodologik ahamiyatda ega. Bunday konseptual birliklar orqali talabalar tilning semantik ottenkalarini anglashni, madaniy qarashlar va tafakkurdagi ziddiyatli tasavvurlarni tahlil qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning til kompetensiyalarini rivojlantiradi va madaniyatlararo kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.

Ikkinchi fasl *“Ziddiyat konseptining pragmalingvistik aspektlari: nutqiy aktlar va kommunikativ strategiyalar”* deb nomlangan. Ishda pragmalingvistik jihatdan leksemalarning 3 bosqichli nutqiy aktlar modeli ajratib ko‘rsatilgan:

Bosqichlar	Tavsif	Misol
LOKUTIV	Gap yoki iboraning yaratilishi va talaffuzi bosqichi	<i>“Hoy, mehmon, issiq choy damladim!”</i> – juda “sovuqqon” xabarni shakllantiruvchi jumla.
ILLOKUTIV	Gapning ijtimoiy–kommunikativ akti – to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita ta‘siri	<i>“Hoy, mehmon, issiq choy damladim!”</i> – “meni choyimni ichamizmi?” degan undash harakati.
PERLOKUTIV	Gapning tinglovchiga ta‘sir natijasi – ishonitirish, undash, reaksiya bildirish	<i>“Hoy, mehmon, issiq choy damladim!”</i> . Tinglovchi choy ichishga majbur bo‘ladi.

Ushbu model o‘zbek va fransuz tillaridagi ziddiyatli kontekstlarda ham mos tushadi: gap strukturasi lokutiv, illokutiv hamda perlokutiv bosqichlar orqali ziddiyat mazmunini tashkil etadi.

Kommunikativ strategiyalarni yoritib berishda quyidagi tushunchalarga e‘tibor qaratildi:

Muloqot implikaturasi va tagma‘no. Nutqda ochiq ko‘rsatilmagan, ammo kontekst asosida tushuniladigan ma‘nolar (implicature) muhim strategiya hisoblanadi: “Hamma vaqtini chog‘ o‘tkazmoqda” – bu yerda aslida “hamma vaqtini bekorga ketkazyapti» degan yashirin tagma‘no mazmuni yashirilgan.

Presuppozitsiya. Gap tarkibida taxminan qabul qilinadigan oldingi ziddiyatni yuzaga chiqaradigan presuppozitsiyalar kommunikativ bosimni kuchaytiradi: “Hamma vaqtini chog‘ o‘tkazishga o‘rganib qolgan.”

Neyropsixolingistik nuqtayi nazardan, so‘zlarni tanlash, gap tuzish, intonatsiya, pauzalar va yuz ifodalarini chiqarish, ya‘ni *fonopragmatik* tagma‘no – emotsional ziddiyatni bevosita shular orqali yetkazadi. *Ekspressiv* tagma‘no – emotiv kompleks tuyg‘ularni bildiradi: *“Qachon tashlaysiz shu fe‘lingizni?!”* va bevosita rasmiy norozilik ifodasi va intonatsiya bilan chiqadi.

Ayniqsa, ziddiyat konseptini tashkil etishda *“lokutiv→illokutiv→perlokutiv model”* juda muhim sanaladi. Implikatura, presuppozitsiya mexanizmlari orqali ziddiyatni noaniq, ammo kuchli tarzda yetkazish sharoiti yuzaga chiqadi. Metafora va ironik iboralar til orqali ziddiyatni stilistik jihatdan kuchaytiradi. Bevosita neyropsixolingistik tagma‘nolar orqali esa nutqiy hosila bosh miyada shakllanadi. Insonning ruhiy holati, ta‘sirchanlik darajasi, sezgi qobiliyati, hissiyoti kompleks tarzda ziddiyat konseptli leksemalar zanjirida namoyon bo‘ladi.

Pragmalingvistik tahlil natijasida ziddiyat konseptli leksemalar nutqiy akt, kommunikativ strategiya, implikatura, presuppozitsiya, baholash va pozitsion ifoda bilan bevosita bog‘liq ekani asoslandi. O‘zbek tilida ziddiyatli mazmun ko‘pincha bilvosita, yumshatilgan, axloqiy baho va kontekstual ishora orqali ifodalansa, fransuz tilida u ochiq polemik, argumentativ va pozitsion diskurs shaklida faol

namoyon bo'lishi kuzatildi. Bu holat ziddiyat konseptining lingvistik ifodasi har bir xalqning kommunikativ madaniyati, bahs yuritish an'anasi va ijtimoiy nutq me'yorlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Mazkur bobning uchinchi fasli "**O'zbek va fransuz tillarida ziddiyat konseptining diskursiv tahlili**" deb nomlangan bo'lib, unda ziddiyat konseptli leksemalarning nutqiy vaziyat, kontekst, kommunikativ maqsad, baholash munosabati va madaniy kod bilan bog'liq holda diskursda voqelanish xususiyatlari yoritilgan. Ziddiyat konsepti faqat lug'aviy ma'no doirasida emas, balki real nutq jarayonida shakllanuvchi murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qilingan. O'zbek va fransuz tillaridagi ziddiyatli birliklarning diskursiv tahlili ularning matn va nutqda bahs, inkor, qarama-qarshi pozitsiya, tanqid, murosa, kinoya, ijtimoiy baho hamda emotsional munosabatni ifodalashda faol ishtirok etishini ko'rsatadi.

O'zbek tilidagi ziddiyat konseptli birliklar ko'pincha bilvosita ifoda, yumshatish, axloqiy baholash, hurmat, murosa va kontekstual ishora orqali namoyon bo'ladi. Fransuz tilida esa ziddiyat mazmuni ko'proq ochiq pozitsiya, argumentativ nutq, polemika, tanqidiy munosabat va shaxsiy fikrni himoya qilish strategiyalari orqali yuzaga chiqadi. Bu holat har ikki xalqning kommunikativ madaniyati va diskursiv tafakkuridagi farqli belgilarni aniqlash imkonini beradi.

Ziddiyat konseptining diskursiv voqelanishida implikatura, presuppozitsiya, konnotatsiya, antonimik munosabat, dialogik qarama-qarshilik va pragmatik baholash muhim o'rin tutishi asoslangan. Ayniqsa, ziddiyatli leksemalar kommunikativ vaziyatga ko'ra neytral ma'no doirasidan chiqib, konflikt, bahs, norozilik, rad etish yoki murosaga chaqirish kabi nutqiy funksiyalarni bajarishi ko'rsatib berilgan.

Shu asosda faslda o'zbek va fransuz tillarida ziddiyat konseptining diskursiv tabiati qiyosiy jihatdan ochib berilib, mazkur konseptning til, tafakkur, madaniyat va kommunikativ strategiyalar kesishmasida shakllanuvchi lingvopragmatik hodisa ekani ilmiy jihatdan asoslangan.

Uchinchi bob "**Ziddiyat konseptli leksemalarning leksik-semantik shartlanishi va neyropsixolingvistik xususiyatlari**" deb nomlangan. Bobning ilk fasli "**Miya faoliyati buzulishlarida ziddiyat konseptli leksemalarning shartlanishi**" deb ataladi. Nutqning shakllanishi va ziddiyat konseptli leksemalarning ifodalanishi inson miya faoliyatining qobiliyatiga, ayniqsa nutqiy markazlar (*Broka va Verneke zonalari*) ning faol ishlashiga bevosita bog'liqdir. Miya faoliyatidagi har qanday buzilishlar, xoh bu alaliya, dizartriya, afaziya yoki fonetik disfunktsiyalar bo'lsin, til birliklarining idrok qilinishi va ishlab chiqarilishida asosiy neyropsixofiziologik ziddiyatlarni yuzaga keltiradi.

Fransuz tilidagi misollar ham bu holatni ochib beradi. Masalan, Broka afaziyasida (*aphasie de Broca*), bemor "*Je veux boire de l'eau*" ("*Men suv ichmoqchiman*") kabi oddiy gapni "*veux... l'eau*" shaklida ifoda etishi mumkin. Bunda to'liqsiz verbal holat ko'zga tashlanadi va mavjud xabarni to'laqonli yetkazish istagi ruhiy ziddiyatda yaqqol seziladi. Bosh miyada leksik birliklarning notekis shartlanishiga ko'ra bunda ong osti holatida lingvistik resurslarning to'liq safarbar eta olmasligi nutqning dinamik buzulishiga sabab bo'ladi. Bunday hollarda ziddiyat konsepti so'zning mohiyati bilan emas, balki ruhiy ifoda holati

vositalari va miya faoliyatining funksional buzilishida namoyon bo‘ladi. Nutqning buzilishi bosh miya funksiyalarida leksik birliklarning ziddiyatli munosabatlarga shartlanmay qolishi va so‘zlovchining nafaqat semantik darajada, balki nutqiy akt va ifoda o‘rtasidagi uyg‘unlikning idrok eta olmasligi bilan izohlanadi. Bunda nutq defekti birinchi navbatda, fonetik ziddiyatlarni – *r* o‘rnida *g*, *s* o‘rnida *sh*, *f* o‘rnida *p* kabi tovushlar bilan almashinishi, intonatsiya va urg‘udan noo‘rin foydalanishlar – nutqiy muammolarni yuzaga keltirib chiqadi. Neyrologik dislaliya yoki fonologik disfaziya, tovushlar paradigmasining buzilishi, duduqlanish, afaziya va b. kasaliklar yuzaga chiqqanidan dalolat beradi: masalan, “*chat*” o‘rniga “*tat*”, “*gâteau*” o‘rniga “*dâteau*” kabi.

Zamonaviy neyropsixolingvistik tahlilga ko‘ra, tilning ziddiyat konseptlari, ayniqsa, qarama-qarshi ma‘nodagi leksemalar (lexèmes oppositifs) nafaqat semantik yadroda, balki nutq jarayonining kognitiv strukturasi [ma‘lumotni shakllantirish → saqlash → taqdim etish] bosqichida ham muhim o‘rin tutadi. Fransuz tili leksikasida “*conflit*” (*konflikt*), “*lutte*” (*kurash*), “*tension*” (*keskinlik*), “*dilemme*” (*dilemma*) kabi leksemalar kognitiv tizimda “*majburiy tanlov*” (*choix forcé*) qolipida shakllanadi. Ularning neyropsixolingvistik asoslari esa bir vaqtning o‘zida ko‘plab kognitiv bilimlar zaminida ziddiyatli harakatlanishni talab qilad: “*yaxshi*” so‘zini ishlatish uchun muqobil “*yomon*” so‘zining ma‘nosi miyada shartlangan bo‘lishi va disfunktsional holatda avtomatlashi lozimdir.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, muloqot jarayonida miyaning funksional vazifa bajarish qobiliyatining pasayishi, toliqishi yoxud nutq qoidalarining buzilishi miya faoliyatining ruhiy jihatdan ziddiyat konseptiga amal qilishga bo‘yin so‘nmaslik natijasi va oqibatidir. Nevrologik nuqtayi nazardan miya “uyning orqasida nima bor”ligini sezishga, bilishga, idrok etib mulohaza bildirishga qodir bo‘la olmasligi uning jismonan shikast topganligidan dalolat beradi. Bunda so‘z boyligi yuqoladi, nutqning ifoda imkoniyatlari cheklanadi, asosiy kommunikativ ehtiyojlarning (*anglash, javob berish, murosaga kelish, qarshi fikr bildirish*) to‘liq ifodalanmaydi. Tilshunoslikda bunday holat “lingvistik tanazzul ziddiyatlari” (*contradictions linguistiques de déclin*) deb yuritiladi. Bular quyidagicha:

ziddiyat konseptli leksemalarning shakllanishi miyaning sog‘lom kognitiv-funksional bazasida shartlanadi;

tilshunoslikdagi ziddiyatlar neyropsixolingvistik zaminda artikulyatsion va semantik to‘qnashuvlar sifatida namoyon bo‘ladi;

fonetik va fonologik darajadagi muvofiqlikning buzilishi, tilda sintagmatik ziddiyatni (ya‘ni ketma-ket bog‘lanishdagi nomuvofiqlikni) yuzaga keltiradi;

ziddiyat konseptining neyropsixolingvistik talqini har qanday tilda universaldir;

har qanday nutqiy buzilish tilning kommunikativ vazifasida asosiy tafovut va notekisliklar (*disjonction, opposition, tension lexicale - disjonksiya, qarama-qarshilik, taranglik leksikasi*) ni keltirib chiqaradi.

Ishda ziddiyat konseptli leksemalarning til darajasidagi yadro-periferiya zonalari bilan bog‘liq semantik shartlanishini, shuningdek, ularning til egasi tomonidan qanday darajada ongli va avtomat tarzda qo‘llanilishiga aniqliklar kiritildi. Shu maqsadda “*le champ conflictuel du lexique*” (leksikadagi ziddiyat

maydoni) modellarini ishlab chiqish va ularni fransuz va o‘zbek til materiallari asosida qiyosiy tadqiq qilish istiqbolli yo‘nalishlardan biri ekanligi ta’kidlab o‘tildi.

Bobning ikkinchi fasli “**Ziddiyat konseptli leksemalarning leksik-semantik tahlili**” deb atalgan. Dastavval, o‘zbek tilida ziddiyat leksemasining leksik-semantik xususiyati haqida izoh berib o‘tilgan. Masalan, *ziddiyat* so‘zining o‘zi morfologik jihatdan *zid* o‘zagidan yasalgan. So‘z derivatsiyasi quyidagicha shartlanishi: [zid → zid+la+moq = zidlamoq; → zid+la+sh = zidlash; → zid+la+ov = zidlov; → zid+la+ov+chi = zidlovchi; → zid+iy = zid+d+iy = ziddiy; → zid+d+iy+at = ziddiyat] ko‘rsatilgan. Leksik paradigmada *zid* leksemasi zanjirida *ziddiyatga bormoq, ziddiyatdan qochmoq, ziddiyat ichida qolmoq, ziddiyatni yumshatmoq* kabi qo‘shma so‘zlar bilan ifodalanganini ko‘rish mumkin.

O‘zTILda “ziddiyat” so‘zining 3 ta mazmuni: 1. Fikriy qarama-qarshilik, bir-biriga xiloflik, akslik: “*Domla gapining uchini yo‘qotib qo‘ydimi yo fikridagi oshkor ziddiyatdan xijolat tortdimi, yamlanib qoldi.*” (M. Ismoilov, “Farg‘ona tong otguncha”) ; “*Ammo men inondim jannatga bugun, Bu gapda yo‘q aslo ziddiyat, tugun.*” (M. Shayxzoda, “Yillar va yo‘llar”); “*Boyagi mushkul ziddiyatlar hali ham [Boburning] xayolini band qilib, ko‘nglida tugun bo‘lib turibdi.*” (P. Qodirov, “Yulduzli tunlar”) kabi jummalarda mazkur semantik ta’kid namoyon bo‘ladi. 2. Murosaga keltirib bo‘lmaydigan qarama-qarshilik, adovat, dushmanlik: “*Shuni bilamanki, sizlar bilan uning oralaringizda suv bilan o‘t orasidagi kabi ziddiyat bor.*” (S. Ayniy, “Esdaliklar”) jumlasini misol keltirilgan. 3. Muhokama yuritishda, matnda, nazariyada va umuman predmet, hodisalarda biri ikkinchisini inkor etadigan ikki mulohazaning mavjudligi va ular o‘rtasidagi munosabatlar. Masalan, “*ziddiyat qonuni*” tushunchasi. Mantiq fanida “*ziddiyat qonuni*” ikki qarama-qarshi fikr ayni bir vaqtda va ayni bir nisbatda to‘g‘ri bo‘lishi mumkin emasligini ko‘rsatuvchi qonuniyat hisoblanadi³⁶.

Tadqiqot mohiyatini aniqlashda “*ziddiyat konsepti*” va “*ziddiyat konseptli leksemalar*” atamalarining chegaralari izohlab berilgan. Tilshunoslik nuqtai nazaridan ziddiyat tushunchasining mazmun-mohiyati, xususan, fransuz tilidagi ilmiy adabiyotlarda “*ziddiyat*” atamasining bitta ekvivalentdan iborat emasligi kuzatildi: ba‘zan bu so‘z *opposition*, ba‘zida *conflit*, yoki *contradiction* singari turli kontekstlarda bir-biridan nisbatan farqli denotativ shakllarda ifodalanishi kuzatildi. “*Opposition*” so‘zi morfologik jihatdan *opposer* fe‘l o‘zagidan [*oppos(er)+i+tion=opposition*] yasalgan. Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek tilidan farqli o‘laroq fransuz tili leksik derivatsiyasi lotin tilining ta’siri ostida ta’rixiy jihatdan o‘zgarishga uchragan. “*Opposer*” fe‘li lotincha “*opponere*” (*ob-* “qarshi, oldida”, *ponere* – “joylashtirmoq, qo‘ymoq”) so‘zidan olingan. *Oppos-* (ildiz: qarshi turmoq, qarshi bo‘lmoq):

—	opposition → ot “ <i>ziddiyat</i> ”;
—	oppositionnel(le) → sifat “ <i>ziddiyatli</i> ”;
—	opposant → ot “ <i>zid tomon</i> ”.

³⁶ Ziddiyat qonuni / O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –Z harfi. –B. 89.

Tilshunoslikda ziddiyat konseptli leksemalarning semantik, morfologik va diskursiv xususiyatlarini aniqlash uchun uning quyidagi tasnifiga e'tibor qaratildi:

Fonologik ziddiyat – til fonema sistemasida fonemalar orasidagi minimal farqlanishlar (masalan /p/ ↔ /b/), bu tur fonologiyada paradigmatic prinsiplar asosida o'rganildi va misollar keltirildi.

Fonostilistik ziddiyat – tovushning stilistik variantlari orqali yuzaga keladigan perspektiv va funksional ziddiyat; bunday ziddiyat poetik til, she'riyat va stilistika kontekstida fonostilistik vositalar yordamida tahlil etildi.

Leksik ziddiyat – leksik birliklar orasidagi qarama-qarshi munosabatlar (antonim, antisemiya, enantiosemiya) – bu tilning leksik makroskopik strukturasi hisoblanadi.

Semantik ziddiyat – leksik birliklar ichida yoki kontekstda yuzaga keladigan ma'no darajasidagi qarama-qarshiliklar (enantiosemiya, ziddiyatli polisemiya), semantik tahlil maskanida muhim nazariy vositadir

Morfologik ziddiyat – affiksial (siffiksial, prefiksial) morfemik qo'shimchalar, inkor yuklamalari orqali generativ va funksional xususiyatlari asoslab berildi.

Sintaktik ziddiyat – bu tuzilma tarkibida yuzaga keladigan kontrastlar, ya'ni gap ichidagi yoki diskurs sathidagi ziddiyatli konstruksiyalar. Antifraza, ritorik, kesatq, ironik gaplar va b. Sintaktik ziddiyat tahlili tilning diskurs holati, matn, muloqot va nutq qurilishi tamoyillarini o'rganishga qo'l keladi.

Ziddiyat konseptli leksemaning morfosintaktik turlarini ot, sifat, fe'l, ravish, olmosh va hatto sonda ham kuzatish mumkin. An'anaviy tilshunoslikda antonim so'zlar tarkibidagi barcha leksemalar ziddiyat ma'nosiga ega. Ularning morfologik xususiyatlarini quyidagicha belgiladik:

1. *Mo'tadil ziddiyatli leksemalar.* Ot so'z turkumi doirasida *ota↔ona*, *do'st↔dushman*, *o'quvchi↔o'qituvchi*, *zamin↔osmon*, *baxt↔baxtsizlik* kabi.

2. *Keskinlashgan ziddiyatli leksemalar.* Sifat so'z turkumidagi *oq↔qora*, *yaxshi↔yomon*, *baxtli↔baxtsiz*, *sabrli↔sabrtsiz*, *dono↔nodon*, *aqlli↔aqmoq*, *mehrli↔mehrsiz*, *omadli↔omadsiz* kabi so'zlar misol bo'ladi.

3. *Keskin ziddiyatli leksemalar.* Fe'l so'z turkumidagi *tug'ilmoq ↔ o'lmoq*, *yurmoq ↔ turmoq*, *bormoq ↔ kelmoq*, *ishonmoq ↔ ishonmaslik*, *ovunmoq ↔ ovunmaslik*, *ko'rmoq ↔ ko'rmaslik*, *qaramoq ↔ qaramaslik*, *chidamoq ↔ chidamaslik*, *sevmoq ↔ sevmaslik*, *yiqilmoq ↔ turmoq* kabi fe'llar.

4. *Muqobil ziddiyatli leksemalar.* Ravish so'z turkumidagi *tez ↔ sekin*, *alaqachon ↔ hozir*, *shoshilinch ↔ bamaylixotir*, *yugurib-yelib ↔ asta-sekin*, *xavotirlanib ↔ beparvo* kabi o'nlab so'zlar ziddiyatli sanaladi.

5. *Sust ziddiyatli leksemalar.* Olmosh so'z turkumida ziddiyat ma'nolari birmuncha noodatiy tarzda uchrashi mumkin. Masalan, *men* olmoshiga nisbatan *sen*, *biz* olmoshiga nisbatan *siz*, *bizlar* olmoshiga nisbatan *ular*, *mana shu↔o'sha*, *hamma↔har kim*, *shuncha↔muncha* kabi olmoshlar ham nisbatan antonimik juftlikka ega.

6. *Sezilarisiz ziddiyatli leksemalar.* Son so'z turkumi tarkibi olmoshlardan ko'ra g'ayritabiiy va noodatiy ziddiyat hosil qiladi. Ma'lumki, barcha raqamlar

birdan (1; 2; 3; 4; 5; 1 000 000) boshlanadi va ularning hammasi nolga teng emas – shuning o‘zi sonlar kesimida ziddiyat alomati borligini isbotlaydi. Ikkinchi jihati, har qanday sonlarning musbat va manfiy alomatlari ham mavjud. Misol uchun, **-1** har doim **+1** ga zid va hamma minus belgi oladigan manfiy sonlar + plyus belgi oladigan musbat sonlarga nisbatan ziddiyatli hisoblanadi. Ammo bular nutq jarayonida sezilarsiz darajada namoyon bo‘lsa-da, miya faoliyatida musbat va manfiy yoki inkor etish doirasida ziddiyatli raqamlar sifatida avtomatlashib qolgan. Morfologiyada son so‘z turkumining raqamlar bilan aloqadorligiga e‘tibor qaratilmaydi. Sonlarning nutqiy jihatlari nuqtai nazaridan sanoq sonlar, tartib sonlar, chama sonlar, umuman, numerativlar o‘rganilishi bilan chegaralanganligini ko‘rish mumkin. Biroq ziddiyat konseptli leksemalar tizimida sonlarda ham ko‘plab matematik va algebraik munosabatlar zaminida qarama-qarshilik uchrashini alohida ta’kidlashni joiz bildik.

Mazkur bobning uchinchi fasli “*Ziddiyat konseptli leksemalarning neyropsixolingvistik xususiyatlari*” deb nomlangan bo‘lib, unda o‘zbek va fransuz tillarida ziddiyat mazmunini ifodalovchi leksemalarning inson ongi, miya faoliyati, idrok, xotira va nutqiy reallashuv jarayonlari bilan bog‘liq xususiyatlari tahlil qilingan. Faslda ziddiyat konseptli leksemalar oddiy leksik birliklar emas, balki tafakkurda qarama-qarshi ma’nolarni uyg‘otuvchi, emotsional reaksiya hosil qiluvchi va nutqiy faoliyatda konfliktli mazmuni voqelantiruvchi murakkab neyrokognitiv birliklar sifatida talqin etilgan.

Neyropsixolingvistik yondashuv asosida ziddiyat konsepti antitezis, qarshilik, inkor, baholash va emotsional zo‘riqish orqali shakllanishi, tilda esa sinonimik-antonimik munosabatlar, metaforik ifodalar, maqollar, frazeologizmlar va diskursiv birliklar orqali namoyon bo‘lishi ko‘rsatib berilgan. O‘zbek tilidagi “*ikki bosh bir qozonda qaynamas*” kabi frazeologik birliklar hamda fransuz tilidagi *esprit de contradiction* hodisasi ziddiyatning milliy tafakkur, madaniy baholash va kommunikativ pozitsiya bilan bog‘liq holda voqelanishini asoslashga xizmat qilgan.

Assotsiativ tajribalar va psixolingvistik testlar ziddiyat mazmunli leksemalarning inson ongida faol semantik tarmoq hosil qilishini, diqqatni tez jalb etishini, kuchli emotsional javob uyg‘otishini va xotirada barqarorroq saqlanishini ko‘rsatgan. Shu asosda ziddiyat konseptli leksemalar til, tafakkur, emotsiya, xotira va nutqiy faoliyat o‘rtasidagi ko‘p qatlamli aloqadorlikni namoyon etuvchi muhim neyropsixolingvistik birliklar sifatida ilmiy jihatdan asoslangan.

Neyropsixolingvistik yondashuv asosida ziddiyat konseptli leksemalarning inson ongida shakllanishi “*idrok – baholash – emotsional reaksiya – nutqiy reallashuv*” jarayoni bilan bog‘liq holda izohlandi. Ziddiyatli mazmun faqat mantiqiy qarama-qarshilik emas, balki tanlov, inkor, murosasizlik, konflikt monitoringi, emotsional zo‘riqish va kommunikativ javob mexanizmlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois mazkur birliklar oddiy antonimik juftliklar doirasida emas, balki til, tafakkur, ruhiy holat va nutqiy faoliyat kesishmasida shakllanuvchi murakkab neyrokognitiv birliklar sifatida talqin qilindi.

To'rtinchi bob **“Ziddiyat konseptli leksemalarning lingvomadaniy va qiyosiy-tipologik tahlili”** deb nomlangan. Uning birinchi fasli *“O‘zbek va fransuz tillarida ziddiyat konseptli leksemalarning lingvomadaniy aspektlari”* deb ataladi. Mazkur bobda tadqiqot doirasidagi ziddiyat konsepti nafaqat leksik-semantik birlik sifatida, balki madaniy-ma'naviy qadriyatlarning ifodachisi sifatida tahlil etildi. Xususan, birinchi faslda ziddiyat konseptining lingvomadaniy aspektlariga, o‘zbek va fransuz tillaridagi mif va afsonalar, folklor namunalari, badiiy asarlar, xalq mentalitetida aks etishi mumkin bo‘lgan nutqiy ifodalar, shuningdek ijtimoiy, tarixiy va falsafiy konnotatsiyalar – so‘zning yoki ifodaning asosiy ma'nosidan tashqari, unga qo‘shimcha ma'no beradigan, shuningdek, emotiv yoki tasavvuriy ta'sir etuvchi, til ishlatuvchilarning ongida mustahkam bog‘langan qo‘shimcha ma'nolarni bildiruvchi tushunchalarga e'tibor qaratildi.

Tahlil natijalaridan ma'lum bo‘ldiki, o‘zbek tilida “ziddiyat” konsepti asosan salbiy konnotatsiyali so‘zlardan iborat bo‘lib, bu leksemalar xalqning tinchlikparvarlik va murosaga intiluvchanlik qadriyatlari bilan bog‘liqdir. Ziddiyat holatlari ko‘pincha buzuvchi kuch, fojia sababi sifatida talqin qilinadi. Shu bois, nutqiy muloqotda mojaroni yumshatish, kinoya orqali ifodalash va bevosita tortishuvlardan qochish hollari ko‘proq uchraydi.

Fransuz tilida, aksincha, “conflit” konsepti lingvomadaniy jihatdan neytral yoki hatto konstruktiv xarakterga ega. Fikrlar to‘qnashuvi, tanqidiy yondashuv, bahs-munozaralar – bularning barchasi fransuz ijtimoiy tafakkuri va madaniyatida sog‘lom fuqarolik pozitsiyasining ko‘rinishlari sifatida qadrlanadi. Bu holatni *“culture du débat”* (bahs-munozara madaniyati) yoki *“esprit critique”* (tanqidiy tafakkur ruhi) hamda ijtimoiy harakatlar va namoyishlar an'anasi bilan bog‘lash mumkin. Siyosiy g‘oyalar tatbiqida, norozilik namoyishlarida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yuqoridagi farqlar lingvistik ifoda vositalarida ham ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilidagi *“ziddiyat”*, *“nizo”*, *“janjal”* so‘zlari aksariyat hollarda ijtimoiy va ruhiy tushkunlik bilan qo‘llanilsa, fransuz tilida *“conflit”*, *“différend”*, *“dispute”*, *“désaccord”* kabi leksemalar zarur holatlarda fikrlar xilma-xilligini, demokratik muloqot muhitini ta'minlovchi vositalar sifatida baholanadi. Hatto, tafakkurdagi ziddiyat *conflit de rôles*, *conflit de valeurs* kabi iboralar orqali “ziddiyat” tushunchasi me'yoriy normativ holat sifatida qaraladi.

Ishda qiyosiy-lingvomadaniy tahlil quyidagilar bilan asoslandi:

ziddiyat konsepti har ikki tilda mavjud bo‘lsa-da, uning ifodalanish shakli, semantik konnotatsiyasi va pragmatik qo‘llanilishi madaniy tafakkur bilan uzviy bog‘liqdir;

o‘zbek tilida ziddiyatga bo‘lgan munosabat preventiv va integrativ holat bo‘lib, ular ziddiyatni oldini olish va fors-majordan qochishga qaratilgan va unda ziddiyatni inkor qiluvchi yondashuv ustuvor seziladi;

fransuz tilida esa ziddiyat – fikrlar xilma-xilligi va jamiyat rivojidadagi katalizator sifatida baholanadi.

Ziddiyat konseptining lingvokognitiv yondashuvi ikki til madaniy paradigmasining ruhiy-psixologik mexanizmlarini ochib beruvchi indikator sifatida xizmat qiladi. fikrimizcha, mazkur faslning tahlillari umumiy til va madaniyatlararo ziddiyat konseptining semantik-kulturologik qatlamlarini chuqur yoritishga zamin yaratadi. Bu yondazshuv o‘z navbatida, neyropsixologik holat, til siyosati, mediatik diskurs, intermadaniy muloqot sohalari uchun ham dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchi bobning ikkinchi fasli “Ziddiyat konseptli leksemalarning komparativ va differensial jihatlari” deb nomlangan. Mazkur faslda ziddiyat konseptining leksik-semantik tizimdagi asosiy ko‘rinishlari o‘zbek va fransuz tillari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda konsept doirasida faol ishlatiluvchi asosiy ziddiyatli leksemalar (o‘zbek tilida : *nizo, janjal, tortishuv, qarama-qarshilik, mojaro*; fransuz tilida : *conflit, désaccord, tension, dispute, polémique*) semantik maydon nuqtai nazaridan tasnif qilinib, ularning qo‘llanish o‘rni, grammatik moslashuvchanligi, uslubiy xususiyatlari tahlilga tortildi.

Fransuz tilida ziddiyat konseptiga mansub birgina *conflit* leksemasi odatda umumiy, ijtimoiy yoki harbiy ziddiyatlarni anglatadi (*conflit armé, conflit d’intérêt*), *tension* esa psixologik yoki muhitdagi keskinlikni bildiradi (*tension sociale, tension familiale*), *polémique* esa intellektual yoki media maydonda qarama-qarshi pozitsiyalar to‘qnashuvi sifatida qo‘llaniladi (*polémique idéologique, polémique publique*). O‘zbek tilida esa ko‘pchilik ziddiyat konseptli leksemalar emotsional semantikaga ega bo‘lib, mazmunan bir-biriga yaqin, biroq stilistik yoki diskursiv tafovutlar bilan ajralib turadi. Masalan, “*nizo*” rasmiy muomala uslubiga xos, “*janjal*” esa og‘zaki nutqda qo‘llaniladi; “*mojaro*” esa ko‘proq ommaviy axborot vositalari tili va siyosiy kontekstlarda uchraydi.

Ziddiyatli leksemalarning differensial jihatlari quyidagilarda bilinadi:

Grammatik jihatdan, fransuz tilida “ziddiyat” leksemalari ko‘plab determinatorlar bilan moslashadi (masalan, *un conflit grave, le désaccord profond*), o‘zbek tilida esa bu jarayon ko‘proq kontekstual erkinlikka egadir.

Uslubiy jihatdan, Fransuz tilida *tension* yoki *désaccord* kabi so‘zlar rasmiy yoki ilmiy diskursda neytral qo‘llanilsa, o‘zbek tilida “*janjal*”, “*urush*” kabi so‘zlar emotsional salbiy ta’sir bilan yuklanadi.

Kognitiv jihatdan, fransuz tilida ziddiyatli leksemalar tez-tez metaforik yoki abstrakt mazmunda ishlatiladi (masalan, *conflit intérieur* – ichki ziddiyat), o‘zbek tilida esa bu holat kamroq uchraydi va ko‘proq literal talqinda qo‘llaniladi.

Ko‘rsatilgan jihatlar *ziddiyat* konseptining ikki tilda ham universal semantik maydonga ega ekanligini, biroq har bir madaniyatda bu konseptning idrok etilishi va nutqiy realizatsiyasi lingvomadaniy va diskursiv darajalarda turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Misol uchun, fransuz tilida mavjud bo‘lgan *conflit de génération* (avlodlar ziddiyati) yoki *conflit d’intérêt* (*manfaatlar to‘qnashuvi*, “*shaxsiy manfaatlar to‘qnashuvi*”, “*katta-kichik o‘rtasida kelishmovchilik*”) kabi iboralar o‘zbek tilida ko‘proq kontekstual, so‘z birikmalari tarzida ifodalanadi.

Ziddiyat konseptli leksemalarning semantik yadro/periferiyasi leksik birliklarning paradigmatic munosabati, sinonimiya, antonimiya va gistematika mezonlari asosida ularning joylashuvi misollarda ko'rsatildi. Ish doirasida olib borilgan komparativ va differensial tahlillar ziddiyat konseptining ikki xil – til va madaniyatdagi shakllanish modelini, kommunikativ-pragmatik qiymatini va lingvistik vositalar orqali qay tarzda kodlanishini aniqlashga xizmat qildi. Bu esa, o'z navbatida, qiyosiy tilshunoslik, konfliktologiya, lingvomadaniyatshunoslik, kommunikativ diskurs nazariyasi uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bobning uchinchi fasli “*Ziddiyat konseptli leksemalarning folklor, badiiy adabiyot va kommunikativ diskursdagi ifodalanishi*” deb nomlanadi. Unda ziddiyat konseptining ifodalanish shakllari o'zbek va fransuz tillari paradigmasida an'anaviy, badiiy va diskursiv ko'rinishlar orqali o'rganiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan boshlab, kanonik adabiy asarlar va zamonaviy tilshunoslikdagi interaktiv nutqiy birliklargacha bo'lgan turli korpuslarga tayangan holda ziddiyatning ramziy, ko'chma va pragmatik ifodalanishidagi lingvodidaktik va pragmalingvistik xususiyatlari ochib berildi.

Ziddiyat mazmunini o'zida mujassam etgan leksemalar maqollar, matallar, afsona va rivoyatlar, shuningdek, epik hamda lingvopoetik asarlardagi barqaror, ramziy leksik tuzilmalar orqali ham namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek maqollarida “*Ahmoq so'zlar, aqlli tinglar*” yoki “*Nomard do'stdan mard dushman yaxshi*” kabi birliklar *ahmoq ↔ aqlli, mard ↔ nomard, do'st ↔ dushman* oppozitsiyalari orqali ijtimoiy, axloqiy va intellektual ziddiyatlarni aforizm shaklida ifodalaydi.

O'zbek adabiyotida A.Qodiriy, A.Cho'lpon, E.Vohidov kabi yozuvchilarning asarlarida qadriyatlar, ajdodlar to'qnashuvi yoki ijtimoiy sinflar o'rtasidagi ziddiyatlar badiiy syujetga ko'chganligi ma'lum. “*Ziddiyat*”, “*qarama-qarshilik*”, “*mojaro*”, “*urush*” kabi leksemalar bunday asarlarda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'naviy va ruhiy holatlarni yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Chunonchi, A.Qodiriyning “*Mehrobdan chayon*”, A.Cho'lponning “*Kecha va kunduz*”, Stendalning “*Qizil va qora*”, Lev Tolstoyning “*Urush va tinchlik*”, Dostoyevskiyning “*Jinoyat va jazo*” asarlarida ziddiyat konseptli leksemalar simbolik tushuncha darajasida sarlavhaga chiqarilgan. Fransuz tilida esa “*Trop de chefs, pas assez d'indiens*” (*Boshliq ko'p, bajaruvchi yo'q*) yoki “*Qui sème le vent récolte la tempête*” (*Shamol sepkan dovul o'radi*) kabi maqollar sababiy tangliklarni tasvirlaydi.

Fransuz adabiyotida V.Gyugo, A.Kamyu yoki J.-P. Sartr kabi mualliflar tomonidan yaratilgan asarlarda ham ekzistensial, mafkuraviy va ijtimoiy ziddiyatlar chuqur tahlil qilinadi. Masalan, V.Gyugo “*Xo'rlanganlar*” asarida Jan Valjan va Javert o'rtasidagi to'qnashuv shunchaki shaxsiy ziddiyat emas, balki qonuniy va axloqiy adolat o'rtasidagi qarama-qarshilikni ramziy tarzda aks ettirgan.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, kundalik ommaviy axborot vositalaridagi yoki siyosiy nutqlardagi ziddiyatli ifodalar, nutqiy ziddiyat

strategiyalari va shaxsni belgilovchi pozitsion yondashuvlarni namoyon etadi. Chunonchi, fransuz tilida “*c’est inadmissible*” (*buni qabul qilib bo‘lmaydi*), “*je ne suis pas d’accord*” (*men rozi emasman*), “*au contraire*” (*aksincha*) kabi iboralar ziddiyatli nutq aktlarini tashkil etadi. O‘zbek tilida esa “*ammo*”, “*biroq*”, “*shunga qaramay*” kabi diskurs markerlari xuddi shu kommunikativ funksiyalarni bajara oladi. Biroq aytish joizki, ular o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan munosabatlarda muvozanatni saqlash va keskin to‘qnashuvdan qochish tamoyillariga amal qiladi.

Lingvomadaniy tahlil o‘zbek va fransuz tillarida ziddiyat konseptining turlicha madaniy kodlanishini ko‘rsatdi. O‘zbek tilida mazkur konsept ko‘proq sabr, murosa, ijtimoiy hurmat, axloqiy baho va jamoaviylik bilan bog‘liq bo‘lsa, fransuz tilida erkinlik, bahs, shaxsiy pozitsiya, tanqidiy fikr va argumentativ nutq bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Demak, ziddiyat konsepti o‘zbek tilida murosaviy-axloqiy, fransuz tilida esa polemik-argumentativ model asosida shakllanishi bilan farqlanadi.

Ta’kidlash joizki, ziddiyat konseptining lingvistik ifodasi yuqori darajada kontekstual, madaniy va diskursiv xususiyatlarga ega bo‘lib, og‘zaki yoki yozma janrlarga, rasmiy yoki norasmiy uslubga, hamda individual yoki kollektiv madaniy an’analarga qarab o‘zgarishi, rivojlanishi va nutqiy konfiguratsiyalar hosil qilishga ishtirok etishi asoslab o‘rganilgan.

Umuman olganda, tadqiqot ishida ziddiyat konseptli leksik birliklarni tahlil qilishda har ikki tilda umumiy hamda xususiy tafovutlar borligi, ochiq va yashirin, ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishda ziddiyatli leksemalarga tayanilib ish ko‘rilishi keng qamrovli dialektik, pragmalingvistik hamda neyropsixolingvistik doirada aniqlab berilgan.

XULOSA

1. Tadqiqot ishida antroposentrik yondashuv asosida fransuz va o‘zbek tilida ziddiyat konseptli leksik birliklarni atroflicha o‘rganishda va olamning lisoniy manzarasini aniqlashda til falsafasi, dialektika qonuniyatlari, bilish nazariyasi, konseptologiya va konfliktologiyaning nazariy mohiyatiga e’tibor qaratildi. Shular bilan birga til va ong, til va tafakkur, til va jamiyat, til va ruhiy holatning neyropsixolingvistik vositalariga ilk bor bevosita murojaat qilindi hamda ularning lingvomadaniyat, pragmalingvistika, personologiya, diskursologiya va komunikologiya uchun muhim o‘rni borligi isbotlandi.

